

O'ZBEKISTONDA YETISHTIRILAYOTGAN NOKNING NAVLARI**Ilmiy rahbar: Ashiraliyeva Odina Xomidjon Qizi****Andijon davlat pedagogika instituti o'qituvchisi****Xakimova Ozoda Abduvahob qizi****Andijon Davlat Pedagogika Instituti talabasi****Telefon: 998(99) 535 25 04****xakimovaozodaxon34@gmail.com****<https://doi.org/10.5281/zenodo.8050646>**

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekistonda yetishtirilayotgan nokning navlari, mamlakatlarga eksport qilinishi, nashvati navlari ko'chatlari yovvoyi nok urug'laridan yetishtirilgan haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Nok, intensiv, seleksiyasi, Vilyams, Lesnaya krasavitsa.

KIRISH

Nok ra'noguldoshlar oilasiga mansub barg to'kuvchi daraxtlar yoki butalar turkumi, mevali daraxt. Dunyo bo'yicha urug'li mevalar ichida (ekilgan maydoni jihatdan olmadan keyin) 2-o'rinda turadi. Nok daraxti 50-300 yilgacha yashaydi.

Nok yorug'savar, qurg'oqchilik va sovuqqa o'rtacha chidamli, qumli, sho'rlangan yerlardan boshqa hamma joyda yaxshi o'sadi.

Nok payvandlash yo'li bilan ko'paytiriladi. Nokzorlar ikki yillik ko'chatlardan barpo etiladi. Ko'chatlari 5-6 yilda hosilga kiradi. 21-asrning 10-yillaridan boshlab O'zbekistonning intensiv bog'larida nokning pakana va past bo'lyi payvandtaglarga ulangan ko'chatlari ekilmoqda. O'rta Osiyoda nokning Yevropa navlari 19-asrning oxirlaridan o'stirila boshlangan. 20-asrning 50-yillarida G'arbiy Yevropa va AQSHdan keltirilgan navlar keng tarqaldi. Bugungi kunda O'zbekiston hududida nokning 17 ta navi yetishtiriladi. Navlariga qarab, mamlakatimizning deyarli barcha viloyatlarida ekish uchun tavsiya etiladi. Bugungi kunda yurtimizda yetishtirilayotgan nok mahsuloti Qozog'iston, Qirg'iziston, Mongoliya, BAA, Rossiya, Turkmaniston kabi mamlakatlarga eksport qilinmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Daraxtning bo'yi o'rtacha 5,4 m, to'rtinchi yili hosilga kiradi. Mevasi uzunchoq noksimon shaklda bo'lib, yuzasi g'adir-budur, po'stlog'i yupqa, yaltiroq, yetilganda mum tusli sariq, mayda nuqtalari bor. Mevasining o'rtacha vazni – 140 g. Eti mayin, sershira, mazasi juda ham yaxshi. Nav kech kuzgi, mevasi avgustning birinchi o'n kunligida pishadi. Hosildorligi – 138,9 s/ga, eng yuqori hosildorligi – 232,9 s/ga ni tashkil etadi. Qayerda yaratilgan: G'arbiy Yevropa. 1959-yil Davlat reyestriga kiritilgan. Mamlakatimizning barcha hududlarida ekish uchun tavsiya qilingan.

NATIJALAR NAVLARI Nashvati — xalq seleksiyasi. yo'li bilan yetishtirilgan nok (olmurut) navlari guruhi. Qishki nashvati, kuzgi oq nashvati, chillaki nashvati, yozgi nashvati kabi navlar shu guruhga oid. O'zbekistonda nashvati ning murut, olmurut deb ataladigan yovvoyi turi — Korjinskiy noki (P. korshinskyi Litv.) tog' etaklari va yon bag'irlarida, soylarda o'sadi. Mevasi dumaloq yoki noksimon-cho'ziq. O'zbekistonda qadimdan ekib kelinadi. Madaniy nashvati navlari ko'chatlari yovvoyi nok urug'laridan yetishtirilgan paivandtaglarga payvand qilib yetishtiriladi. 4—6-yili hosilga kiradi. Daraxti balandligi 8–12 m. Boshqa nok navlariga qaraganda erta gullaydi. Mevasi navyga qarab iyun oxiridan oktabr boshlarigacha bo'lgan davrda pishadi, ogirligi 120—250 g (ba'zan 500—700 g), ko'pchiligi sarg'ishko'kish, ayrimlari rangdor, usti moysimon g'uborli, silliq. Eti och sariq yoki ko'kish-oq, kuvrak, suvli, nordonshirin, urug'i yirik; kechpisharlari mart—aprelgacha saqlanadi.

“Vilyams” – G'arbiy Yevropada yaratilgan. Respublika bo'yicha Davlat reestriga kiritilgan. Mevasi avgustning birinchi o'n kunligida pishadi. Daraxtning bo'yi o'rtacha 5,4 m, to'rtinchi yili hosilga kiradi. Hosildorligi – 138,9 s/ga, eng yuqori hosildorligi – 232,9 s/ga ni tashkil etadi. Mevasi uzunchoq bo'lib, yuzasi g'adirbudur, po'stlog'i yupqa, yaltiroq, yetilganda mum tusli sariq, mayda nuqtalari bor. Mevasining o'rtacha vazni – 140 g. Eti mayin, sershira, mazasi juda ham yaxshi.



“Zimnyaya nashvati 2” – Akademik M.Mirzayev nomli bog'dorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy-tadqiqot institutida yaratilgan. Qoraqalpog'iston Respublikasi va Buxoro, Navoiy, Qashqadaryo, Samarqand, Surxondaryo, Toshkent, Jizzax, Sirdaryo, Xorazm viloyatlari bo'yicha Davlat reestriga kiritilgan. Nav qishki, mevasi oktyabrning birinchi o'n kunligida pishadi. Hosildorligi – 228,5 s/ga, eng yuqori hosildorligi – 310,8 s/ga ni tashkil etdi. Nok daraxtining bo'yi baland bo'lib, 10,3 m, shox-shabbasi keng soyabonsimon, oltinchi yili hosil bera boshlaydi. Mevasi bochkasimon, ustki qismi silliq, rangi sariq, mevasining o'rtacha vazni – 177 g. Eti oq sershira, sarg'ish juda qumoq, zich, sal nordon.


“Lesnaya krasavitsa” – Belgiyada yaratilgan. Respublika bo'yicha Davlat reestriga kiritilgan. Yozda iste'mol qilinadigan xo'raki nav. Mevasi iyulning ikkinchi o'n kunligida pishadi. Hosildorligi – 228,3 s/ga, eng yuqori hosildorligi – 299,2 s/ga ni tashkil etadi. Nok daraxtining bo'yi o'rtacha 5,8 m, shox-shabbasi qalin va keng piramidasimon. Ekilgandan keyin to'rtinchi yili hosilga kiradi. Mevasi tuxumsimon-noksimon, tilla rang sariq, yaqqol qizg'ish g'uborlari bor, mevasining o'rtacha vazni – 125 g. Eti sarg'ish oq, sershira, mayin, moyli, mazasi shirin.

“Levovasser navi” – Fransiyada yaratilgan. Qashqadaryo viloyati bo'yicha Davlat reestriga kiritilgan. Nav qishki, mevasi oktyabrning birinchi o'n kunligida pishadi. Nok daraxtining bo'yi baland – 7,1 m bo'lib, yettinchi yili hosilga kiradi. Hosildorligi – 83,6 s/ga, eng yuqori hosildorligi – 145,2 s/ga ni tashkil etadi. Meva bandi tomoni juda toraygan, po'stlog'i sariq rangda bo'lib, ko'p sonli zangsimon nuqtalari bor. Mevasi yirik, o'rtacha vazni – 180 g. Eti oq, zich, sershira, mazasi nordon-shirin.

“Sariq go'zal” – Akademik M.Mirzayev nomli bog'dorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy-tadqiqot institutida yaratilgan. 2003-yildan Buxoro, Toshkent va Farg'ona viloyatlari bo'yicha Davlat reestriga kiritilgan. Yozda pishadi. Mevasi iyul oyida yetiladi. Mazkur navli nok daraxtining bo'yi o'rtacha balandlikda, ya'ni 5,5-6,0 m bo'lib, shox-shabbasi keng yumaloq shaklda, bargi yirik ellipssimon, rangi yashil qirrali, silliq. Oltinchi-yettinchi yili hosilga kiradi. Hosildorligi – 486,4 s/ga ni tashkil etadi. Mevasi yirik, rangi och-yashil, ayrim joylari qizg'ish, o'rtacha vazni 230 g. Eti oq-sarg'ish, sersuv, mevasi nordon-shirin.

“Ra'no” – Akademik M.Mirzayev nomli bog'dorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy-tadqiqot institutining

Samarqand ilmiy-tajriba stansiyasida yaratilgan. Namangan viloyati bo'yicha Davlat reestriga kiritilgan. Nav kuzgi, mevasi avgustning uchinchi o'n kunligida pishadi. Nok daraxtining bo'yi o'rtacha, keng shox-shabbalidir. Daraxti



ekilgandan so'ng beshinchi yili hosil bera boshlaydi. Hosildorligi – 200 s/ga, eng yuqori hosildorligi – 375,6 s/ga ni tashkil etadi. Mevasi uzunchoq, sariq, qizil g'ubori bor, yirik, mevasining o'rtacha vazni – 153 g. Eti o'rtacha sershira, zich, mazasi nordon-shirin.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda barcha meva mahsulotlari kabi nok ham inson organizmi uchun katta ahamiyatga ega. Uning tarkibida arbutin, pektin, foliy kislotasi, beta-karotin mavjud bo'lib, A, B1, B2, B5, B6, B9, C, E, K, N va PP vitaminlari hamda inson organizmi uchun kerakli minerallar – kaliy, kalsiy, rux, mis, marganes, temir, yod, oltingugurt, ftor, fosfor va natriy mavjud. Shuningdek, oqsil, yog' va uglevodga boy. Mazkur meva yurak-qon tizimini yaxshilash, buyrak va qovuq yallig'lanishining oldini olish, organizmni turli zahar va xiltlar (xolestrin) dan tozalash xususiyatiga ega.

References:

1. Harper, Douglas. "pear". Online Etymology Dictionary.

2. Ibn al-'Awwam, Yahyá (1864). Le livre de l'agriculture d'Ibn-al-Awam (kitab-alfelahah) (in French). Translated by J.-J. Clement-Mullet. Paris: A. Franck. pp. 240–242 (ch. 7 - Article 12). OCLC 780050566. (pp. 240–242 (Article XII).
3. A.A.Ribakov, S.A.Ostrouxova (1981). O„zbekiston mevachilig. O„qituvchi Toshkent, 27-29, 189-190 betlar.
4. Alisher Botirov, Baxodir Ochilov, & Furqat Hasanov (2022). ILMIY-TAJRIBA STANSIYASINING SO„NGI YILLARDAGI STATISTIK KUZATUVLARI. Central Asian Academic Journal of Scientific Research, 2 (2), 202-207.

